

TALABALARDA “INNOVATSION FAOLIYAT+ AMALIY SAN’AT+ ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYA” INTEGRATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Xalmuratov Imamatin Tajetdinovich,

QQDU, tayanch doktranti

[imamatdin.khalmuratov@gmail.com](mailto:imamatdin.khalmuratov@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18082373>

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvlarni asosan, qoraqalpoq amaliy san’atini asosiy vosita sifatida qarash masalasi yoritilgan. Pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlarini olimlar fikrlariga tayangan holda asosiy belgilarini yoritib bergan. S.Allabergenov zamonaviy realizm uslubidagi “Natyurmort” asaridagi issiq ranglar+ maishiy buyumlar” kombinatsiyasi haqidagi tushunchlar keltirilgan. Talabalar S.Allabergenovning bu asarini o’rganish orqali innovatsion faoliyat+ amaliy san’at+ zamonaviy texnologiya integratsiya shakllanishi bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** innovatsion faoliyat, kreativ fikrlash, qadriyatli yondashuv AR dizayni, 3D ob’ektlar, animatsiya, matn, effekt, interaktiv tugma.

**Аннотация:** В статье рассматриваются ценностно-ориентированные подходы к развитию инновационной активности студентов, при этом главным педагогическим инструментом рассматривается каракалпакское прикладное искусство. На основе научных взглядов выявлены и проанализированы основные характеристики и отличительные черты инновационной деятельности педагога. В исследовании также представлена интерпретация сочетания тёплых цветовых тонов и бытовых предметов в натюрморте С. Аллабергена «Натюрморт», выполненная в стиле современного реализма. Более того, в статье даётся разъяснение, как анализ студентами данного произведения способствует формированию интегрированной модели, объединяющей инновационную деятельность, прикладное искусство и современные технологии.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, креативное мышление, ценностно-ориентированный подход, AR-дизайн, 3D-объекты, анимация, текстовое содержание, визуальные эффекты, интерактивные кнопки.

**Abstract:** The article examines value-oriented approaches to fostering students’ innovative activity, with Karakalpak applied arts considered the primary pedagogical tool. Based on scholarly perspectives, the main characteristics and distinctive features of a teacher’s innovative activity are identified and analyzed. The study also presents an interpretation of the combination of warm color tones and everyday objects in the still life Still Life by S. Allabergenova, executed in the style of contemporary realism. Furthermore, the article provides an explanation of how students’ analysis of this artwork contributes to the formation of an integrated model that combines innovative activity, applied arts, and modern technologies.

**Key words:** innovative activity, creative thinking, value-based approach, AR design, 3D objects, animation, textual content, visual effects, interactive buttons.

**Kirish va dolzarbligi.** Jahonning ko‘plab davlatlari innovatsion boshqaruvda “human-centered development” modeliga o‘tmoqda. Unda texnologiya emas, balki inson farovonligi, huquqlari va hayot sifatini yaxshilash ustuvor hisoblanadi. Bu esa qadriyatli yondashuvning global jarajadagi asosiy strategik talab ekanligi yana bi bor tasdiqlaydi. Qadriyatli yondashuv asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jahon miqyosida nafaqat dolzarb, balki strategik zaruriyatdir. Chunki texnologik taraqqiyotning barqaror, xavfsiz va adolatli bo‘lishi faqat qadriyatlar bilan uyg‘un holda boshqarilganda ta‘minlanadi.

**Tadqiqot ob’ekti va qo’llanilgan metodlar.** Bugungi kunda talabalarning innovasion faoliyat bilim, ko’nikma, malakalarga ega bo’lishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar tomonidan innovasion faoliyat ko’nikma, malakalarini o’zlashtira olishlarida ularning innovasoin yondashuvga ega bo’lishlari talab etiladi. O’z mohiyatiga ko’ra talabalar tomonidan innovasion faoliyat ko’nikma, malakalarining o’zlashtirilishi ularda innovasion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo’lib, u bir necha bosqichda kechadi. Talabalarning innovasion faoliyatini rivojlantirishda qadriyatli yondashuvlarni asosan, qoraqalpoq amaliy san’atini asosiy vosita sifatida qarash mumkin. Qoraqalpoq amaliy san’atini o’rganish amaliy mashg’ulotlar, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg’ulorlarda hamda amaliy san’atga oid tadbirlar jarayonida amalga oshiriladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda AR dizaynida 3D ob’ektlar, animatsiya, matnlar, effektlar, interaktiv tugmalar, virtual predmetlar bilan dizain yaratish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Innovatsion faoliyat ta’limiy jarayondagi har qanday vaziyatdagi muammolarni hal etish uchun qulay jarayon bo’libgina qolmay, sifat samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan pedagogning harakat tizimi hisoblanadi. O’z navbatida bu tizim amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo’lib xizmat qiladi. Amaliyot va nazariyada innovatsion ta’limiy faoliyatining bosh masalasi esa pedagogning ta’limiy jarayonni samarali va natijadorli tashkil eta olishidan iboratdir. Innovatsion faoliyat - uzoq vaqt davomida uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash evaziga shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning harakatga keltiruvchi pedagog jarayonni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan o’rinli foydalana bilmog’i lozim. Pedagogik texnologiya - bu ta’lim shakllarini optimallashtirish, o’qitish va o’zlashtirish, qo’llash va natijaga erishishning tizimli usuli. Pedagogik texnologiya ta’lim berishda qo’llaniladigan eng oqilona usullar va vositalar, rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish uchun maqsadlar majmuasidir.

Pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlari olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin[1]:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- ta’limiy tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- o’zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo’llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko’rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o’rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin “Innovatsion faoliyatning tuzilishi - ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatidir”, - deb ta’kidlaydi [3].

M.M.Potashnik esa innovatsion jarayonlar mohiyatini quyidagi tuzulmalarga egaligini ko'rsatadi.va ularni: faoliyat tuzulmasi, sub'ektiv, darajali, g'oyaviy, davriylik, boshqaruv, tashkiliy tuzulmalari deb ta'kidlaydi [2]

Bugungi kunda yangilangan jamiyat ma'naviy, intellektual qadriyatlari, xalqning boy an'analari, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, fan, texnika, texnologiyalar yutuqlariga tayangan holda, shuningdek, ma'naviy-axloqiy an'analarni qayta tiklash va rivojlantirish asosida rivojlanadi.

Yangi tizimga o'tishdek murakkab jarayonda tarixga yangicha yondashish, uni haqqoniy aks ettirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Bu masalalarni hal qilishda bizning ularga munosabatimiz qanday bo'lishi kerak? Bugungi kunda ta'lim, tarbiya jarayonida amaliy san'atimizga oid merosimizning ta'sir doiralari, imkoniyatlari qanday bo'lishi kerak? Mana shu savollardan kelib chiqqan holda biz o'zimizga xos, o'zimizga mos amaliy san'at merosimiz ildizlarini chuqur, aniq va puxta bilib olmog'imiz kerak. Ya'ni biz xalqimiz tarixiy jarayonda orttirgan o'tmishdagi ozmi-ko'pmi tajribasini, erishgan yutuqlarining amaliy san'at ildizlarining mohiyatini to'g'ri anglashimiz, ta'lim-tarbiya jarayonida uning o'rnini va ta'siri katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur bilmog'imiz, tushunib yetmog'imiz kerak. Demak, bizning o'z tariximiz va madaniyatimiz bo'lgan. Buning uchun bizning tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor. Biz o'z hayoti, madaniyati, amaliy san'ati tarixiga ega xalqimiz.

Shu o'rinda biz talabalarga S.Allabergenovning 2021 yilda natyurmort janrida zamonaviy realism uslubida yaratgan(rasmga qarang) asarini taqdim qilishimiz mumkin. Rassom natyurmortda oddiy kundalik predmetlar, uy-buyumlari, ovqat-idishlar, mevalar va h.k. bo'lishi mumkin. Rassom S.Allabergenov bu asarda uydagi iliqlik, oshxona yoki maishiy muhit hissini berishga harakat qilgan.



### **Rasm. S.Allabergenov zamonaviy realism uslubidagi "Natyurmort"**

O'qituvchi bu asar orqali talabalarga "Bu asardagi predmenlar nimani anglatadi?", "ranglar orqali nimalarni sezding" kabi savollarni muhokama qilish mumkin. Talabalarga bu asarni tushuntirishda rassom natyurmortda oddiy, kundalik buyumlarlardan tashkil topganligi sababli uy- hayot, mahalliy hayot, maishiy muhit haqida hissiy tushuncha bera olishini o'qituvchi keltirib o'tadi.

Issiq ranglar+ maishiy buyumlar” kombinatsiyasi talabalarda qulaylik, iliqlik, uymuhiti, mahalliy madaniyat hissini uyg‘otadi. Bu rassom san’ati oddiy predmetlarni go‘zallik va ma’no bilan boyita olganligini talabalarga tushuntirish nafaqat rang, shakl, kompozitsiyani o‘rgatadi, balki san’at orqali madaniy va ijtimoiy kontaktini tushunishga olib keladi. Talabalarga yangi realizm uslubidagi asarni o‘rganish orqali talabalarda innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Biz tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida S.Allabergenovning mazkur asarini o‘rganish orqali talabalarda innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi dars ishlanmasini taqdim qilganmiz:

**Darsning ta’limiy maqsadi:** asarni o‘rganish, tarkib, rang, yorug‘lik soya tahlili beriladi. Natyurmortda rassomning amaliy san’at buyumlarining (keramika, mato, yog‘och, plastika) dekorativ imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Talabada innovatsion fikrlash, kreativ kompozitsiya, raqamli texnologiyalardan foydalanish (digital sketch, AR, 3D) ko‘nikmalarni shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** mahalliy san’atda qiziqish uyg‘atish; estetik didni shakllantirish va talabalarni mehnatsevarlikni va izlanishga o‘rgatishdan iborat deb belrilib olindi. Darsga kerakli jihozlarga:

Rassomning asari, kompyuter, monitor yoki proyektor, qog‘oz, qalam, guash yoki akrel bo‘yoq, 3D-AR (Augmented Realit(kengaytirilgan reallik)) ilovalar (artivive, Adobe Aero), planshet yoki telefon, keramika, yo‘g‘och, mato bo‘yoqlari( tajribada ko‘rish uchun).

Darsni o‘qituvchi talabalarga quyidagi savollar bilan boshlaydi: Natyurmort janrining vazifasi nima? Zamonaviy realizm nimasi bilan farq qiladi? Amaliy san’atda predmetlar qanday talqin qilinadi? Kabi savollarga talabaning fikrlarini eshitadi. S.Allabergenovning asari ekranda ko‘rsatib quyiladi va birgalikda asar tahlil qilinadi. Asarni tahlil qilishda birinchi kompozitsion yaniy asardagi predmetlarning joylashishi, diqqat markazida nima joylashtirilgan, va shu predmetlarning o‘zaro muvozanatini ochib berishadi. Ranglar yecimida talilida: issiq rang palitralari, jigarrang, och sariq ranglarning kayfiyatni ko‘tarishdagi sokinlik, iliqliklarni his qilishi tahlil qilinadi. Asardagi yorug‘lik-soya konstruksiyasida talabalarga optik kuzatuvning aniq berilishi va fakturalarning realistik ko‘rinishi tahlil qilinadi. Bu asarning amaliy san’at bilan bog‘liqlik tomonini idish, mato, buyumlar- bular amaliy san’at ob’ektlari hisoblanib ularga ishlov berish, bezash imkoniyatlarini o‘qituvchi talabalar bilan tahlil qiladi.

Mashg‘ulot davomida talabalar uch bosqichda innovatsion amaliy ish bilan shug‘ullanishi ko‘zda tutiladi.

**1.Bosqich: Digital Sketch-** bundagi vazifa: talabalarga asardagi asosiy rang massasini planshet yoki telefon orqali digital tarzda qayta ishlash va issiq ranglar spektridan 5 xil

gradient ajratib olish topshiriladi. Bunda talabalar raqamli ijod texnikasidan foydalanib ranglarni innovatsion talqin qilishni o'rganadi.

2. **Bosqich: Amaliy san'at** materiali bilan ishlash. Bunda talabalar 3 guruhga bo'linadi. **1 guruh**-keramikani bo'yash topshirig'i beriladi. Bunda talabalar natyurmortdagi idish shaklini keramika bo'yoqlari bilan dekorativ tasvirlashlari kerak bo'ladi. **2 guruh**- yog'och kuydirish orqali natyurmortdagi naqshlarni yog'och plastina ustiga takrorlashlari topshiriladi. **3 guruh** esa matoga bo'yash ishlari bilan shug'ullanadi. Bu jarayon uchun darsning 15 daqiqasi ajratiladi.

3. **Bosqichda** talabalar innovatsion 3D yoki AR loyihasi orqali yangi natyurmort kompozitsiyasi yaratadi. Bu bosqichda talabalarga virtual idish, meva, mato yoki fonni AR orqali joylashtirishlari va yorug'likni sozlash innovatsion kompozitsiya yaratish vazifasi yuklanadi. Natijada talabalar AR dizayn, raqamli kompozitsiya, multimedia san'ati ko'nikmalari shakllanadi. Natyurmortni raqamli amaliy san'at sifatida qilishni o'rganadilar.

Talabalarda AR dizayn deganimiz bu - Augmented Reality (kengaytirilgan reallik) texnologiyasi asosida yaratiladigan interaktiv, virtual grafik elementlar va ob'ektlarni real muhit birlashtirilib dizayn qilish jarayoni demakdir. Oddiy qilib soddalashtirib aytganda AR-dizayn-virtual tasvir+ real dunyo birlashgan dizayn turi. AR dizayndan foydalanib talaba telefon yoki planshet kamerasi orqali real muhitni ko'radi va shu muhit orqali: 3D ob'ektlar, animatsiya, matnlar, effektlar, interaktiv tugmalar, virtual predmetlar bilan dizayn yaratishni o'rganadilar. Masalan talaba telefon kamerasi orqali stolga qaraydi va ekranda stol ustida 3D chashka, meva, idish, natyurmort elementlari qo'shiladi. Bu esa AR dizayn sanaladi.

Dars yakunida har bir guruh yaratgan ishlarini ko'satadi. S.Allambergenovning asari bilan o'xshash tomonlarini va innovatsion jihatlarini ko'rsatib tushuntirib beradi. O'qituvchi talabalarning yaratgan asarlarini baholaganda: g'oyaning yangiligini, ishning texnik bajarilishini, undagi ranglar uyg'unligini va kompozitsiyasini baholaydi. O'qituvchi talabalarga bugungi mavzu bo'yicha uyga fazifa sifatida; "Issiq ranglardagi innovatsion natyurmort chizishni 2 versiyada ishlash topshiriladi. 1 versiyasida talaba natyurmortni amaliy san'at uslubida, ikkinchi versiyasida esa raqamli formatda (digital painting) ishlab kelishi topshiriladi. Ushbu darsda talabalarda an'anaviy natyurmortni zamonaviy ko'z bilan ko'ra olishi, amaliy san'at materiallarini innovatsion talqin qila olishda o'rganadi. Shuningdek, digital, AR va 3D texnologiyalaridan foydalanishni, talabalarda kreativ fikrlashi rivojlanadi. Natijada talabalarda S.Allambergenov asarini o'rganish orqali innovatsion faoliyat+ amaliy san'at+ zamonaviy texnologiya integratsiya shakllanadi.

**Xulosa.** Innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish –bu talabalarda innovatsion faoliyatni kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalari sifatida AR va VR texnologiyalarida naqshlarni AR orqali jonlantirish va 3D amaliy san'at buyumlarini virtual muhitda sinashni amalga oshirish, raqamli dizayn dasturlari orqali talabalar Adobe illustrator- naqsh

generatsiyasi, Blender-3D kulolchilik shakli, CoreDRAW- amaliy buyumlar bezagini amalga oshirishda qo'llanish ko'nikmalari shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Григорьева С. Г. Инновационная деятельность учителя как педагогическое явление // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. 2011. № 3 (71). Ч. 1. -С.53.
2. Potashmik, M.M. Pedagogik innovatsiyalarno boshqarish tizimlari. Moskva: Pedagogika.1998
3. Slastenin V.A. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi. Moskva: Vysshya shkola, 2001.

